



**Sandjar BEKMURADOV,**

*Dotsent, PhD, TAFU, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: stb.uz.com@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0002-4920-2837>*

**Gulhayo MUXTOROVA,**

*Talaba, TAFU, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: huamei.uz@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0006-2422-799X>*

*Dotsent F.Yo'ldoshev taqrizi asosida*

## MO'G'ULLAR IMPERIYASIDA ALIBEK YALAVOCHNING SIYOSIY VA MA'MURIY ROLI

Аннотация

Mo'g'ullar hukmronligi davrida mo'g'ullar xizmatida ko'plab taniqli davlat arboblari va nufuzli sulolalar vakillari bo'lgan. Ana shunday arboblardan biri – Yalavochlar avlodining a'zosi, Mahmud Yalavochning o'g'li Alibek Yalavoch edi. Ushbu sulolaning mo'g'ul xonadoniga qilgan xizmati tarixiy manbalarda aks etganidan ko'ra ancha murakkab bo'lgan. Bunga sabab, mo'g'ullarga xizmat qilgan Yalavochlar sulolasi tarixining talqini uzoq vaqt davomida turli tarixiy asarlarda bahsli masala bo'lib kelganidir. Maqola mualliflarining fikriga ko'ra, mo'g'ullarning boshqaruv strategiyasiga oid ayrim jihatlardagi mavhumlikning saqlanib qolayotgani aynan mana shunday muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxslar tarixi bilan bog'liqdir.

**Kalit so'zlar:** Alibek Yalavoch, Xubilay xon, Xenan, Sin Yuan shi, Syueydun, Yaqubbek, Safolik.

## THE POLITICAL AND ADMINISTRATIVE ROLE OF ALIBEK YALAVOCH IN THE MONGOL EMPIRE.

Annotation

During the Mongol rule, many prominent statesmen and representatives of influential families served them. One such individual is Alibek Yalavoch, a member of the Yalavoch family and the son of Mahmud Yalavoch. The family's service to the Mongol dynasty was considerably more complex than is reflected in historical sources. This is because the portrayal of the history of the Yalavoch family, who served the Mongols, has long been a contentious issue in various historical works. According to the authors of the article, the continued ambiguity surrounding certain aspects of the Mongols' governance strategy is precisely linked to the history of individuals of significant historical importance.

**Key words:** Mahmud Yalavoch, Alibek Yalavoch, Kublai Khan, Henan, Xin Yuan Shi, Xueydung, Yaqub Beg, Safolik.

## ПОЛИТИЧЕСКАЯ И АДМИНИСТРАТИВНАЯ РОЛЬ АЛИБЕКА ЯЛАВАЧА В МОНГОЛЬСКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация

В период монгольского владычества на службе у монголов находилось множество выдающихся государственных деятелей и представителей влиятельных родов. Одним из таких деятелей был Алибек Ялавоch, член рода Ялавоchей и сын Махмуда Ялавоchа. Служение этого рода монгольской династии было гораздо сложнее, чем это отражено в исторических источниках. Это связано с тем, что изображение истории рода Ялавоch, служившего монголам, долгое время оставалось спорным вопросом в различных исторических трудах. По мнению авторов статьи, сохраняющаяся неоднозначность в отношении определенных аспектов стратегии правления монголов как раз и связана с историей личностей, имеющих значительное историческое значение.

**Ключевые слова:** Алибек Ялавоch, Хубилай-хан, Хэнань, Синь Юань ши, Сюэйдун, Якуббек, Сафолик.

**Kirish.** XIII asrlar Mo'g'ullar tarixi xususan Chig'atoy ulusi va Yuan sulolasi tarixining moliya, soliq tizimi, harbiy ijtimoiy tarixini yoritishda Yalavochlar oilasining ahamiyati katta. Zero, Yalavochlar tarixda mavhum bo'lib kelayotgan masalalardan hisoblanadi. Yalavochlar oilasi tarix sahnasida faqat bosqinchilar manfaatiga xizmat qilgan shaxslar sifatida talqin etilishi tarixiy haqiqatlarga to'liq mos kelmaydi deb hisoblaymiz. Chunki Mahmud Yalavoch va uning oilasi mo'g'ullar istilosi oqibatlarini yumashatishga, ular hukmronlik qilgan hududlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'muriy hayotini qayta tiklashga hamda mahalliy aholi bilan mo'g'ul hikmdorlari o'rtasida munosabatlarni tartibga solgan oila vakillari hisoblanadi.

Shu o'rinda, Mahmud Yalavochning farzandi Alibek Yalavochning mo'g'ullar imperiyasidagi xizmat faoliyati haqidagi ma'lumotlarning ahamiyati muhimdir. Boisi, u bir vaqtning o'zida ham mo'g'ullar imperiyasi maqsadlariga xizmat qilgan, ham tizimda mustaqil qaror qabul qilgan shaxs sifatida gavdalanadi. Shuning uchun mo'g'ullarning harbiy

boshqaruv tizimida Alibek Yalavochning harbiy tizimdagi faoliyati ushbu maqolada ko'rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mahmud Yalavochning kenja farzandi hisoblangan Alibek Yalavoch haqida arab va fors manbalarida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Italyan mo'g'ulshunos olimi, Igor de Racheviltz tadqiqotlarida [3, 129-130] Mahmud Yalavochning uchta o'g'li Ma'sudbek, Husayinbek va Alibeklar haqida aytiladi. U ushbu ma'lumotni xitoy manbasi "Sin Yuan Shi" ("Yangi Yuan sulolasi tarixi") asariga asoslanib aytgan. Ma'lumki, Ma'sudbek arab va fors manbalarida otasi Mahmudning Chig'atoy ulusi noibligidan ozod etilganidan so'ng uning vazifasini ado etuvchi etib tayinlangan [5, 66-99]. Husayinbek haqidagi ma'lumotlar deyarli yo'q. Uning tug'ulgan yillari noma'lum. Lekin u mo'g'ul hukmdorlariga xizmat qilib, 1260-yil Hirotning vassal hukmdoriga sherik etib tayinlangani haqida manbalarda so'z boradi [7]. Alibek Yalavoch (?-1281) [3, 130]ga kelsak, uning mo'g'ullar xizmatidagi faoliyati haqida A.Xodjaveyevda [6] dastavval Ili xoni (Sharqiy Turkustoning Ili

viloyati hukmdori) etib tayinlangan so'ngra, Xubilayxon davriga kelib davlatning siyosiy ishlariga jalb etilganligi haqida aytilgan. Shuningdek, A.Xodjayeveda uning 1267-yilda maslaxatchi, 1272-yilda esa o'ng qo'l vaziri etib tayinlanganligi va Henan[8]o'lkasining ma'muriy ishlar boshlig'i vazifasi topshirilganligi haqida aytilgan.

Jumladan, u haqida "Sin Yuan Shi" asariga asoslanib aytgach, 1276-yilning 10-oyida Jianghuai [9] viloyatiga ishboshqaruvchi etib tayinlangan. Ammo 1280-yilning 12-oyida noma'lum sabablar bilan sudlangandan so'ng biroz vaqt o'tgach vafot etgan. A.Xodjayeveda Alibek nima sababdan sudlanganligini ochiqqlamagan, biroq I.D.Racheviltzning Alibek Yalavoch haqidagi ma'lumotlari 1262-yildan boshlab keltirilgan [3]. Yalavochlardan faqat Alibekning faoliyati harbiy sohada olib borilgan. U 1264-yilda o'ng qo'shin qanoti boshlig'i lavozimigacha ko'tarilgan. Aynan shu vaqtdan Xitoydagi ba'zi qo'zg'olonlarning oldini olish borasidagi ishlarda o'zini ko'rsata boshlagan. Alibek 1267-1271-yillarda siyosiy ishlar bo'yicha yordamchi o'rinbosar vazifasiga ko'tarilgan. Uning ushbu davr oralig'idagi xizmat faoliyati noma'lumligicha qolmoqda. 1271-yil boshida Alibek Yalavoch Henanda bir qator harbiy koloniyalar tarqatib yuborilganda tashlab qo'yilgan yerlarni ekin maydoniga aylantira olmagan uchun ko'p tanqidga uchragan.

I.D.Racheviltzning ma'lumotiga ko'ra, Alibek Yalavoch bu voqealardan so'ng bir oz muddat xizmat faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan. 1271-yil Xubilayxon Janubiy Song sulolasiga [10] qarshi katta hujum boshlagan vaqtda Alibek barcha beklar bosh qo'mondoni sifatida hamroh bo'lgan. 1275-yilga kelib vazir maqomiga erishgan. 1275-yil 3-oktyabrda mo'g'ul qo'shinlari Kiangsu[11] (Jiangsu) viloyatidagi Xuay-an (Huai'an) shahrini egallagan. Bir muddatdan so'ng, u Xan-chjou[12] (Hangzhou) yaqinida joylashgan Van-you hududi ustidan nazoratni qo'lga olgan. U Xan-chjou yonidagi Van-youni nazorat qilish uchun tayinlangan.

1279-yilgacha Kiangsu va Anxvey hududlarida Song sulolasi hukmronligiga barham berishda muhim xizmat ko'rsatganligi sababli, unga mazkur hududlarda siyosiy va ma'muriy boshqaruv ishlarini amalga oshirish vazifasi topshirilgan. Uning ushbu lavozimdagi faoliyat davri keskin siyosiy qarama-qarshiliklar va mojarolar bilan xarakterlanadi.

Jumladan, 1279-yil mart oyida Alibek markaziy hokimiyatda Kiangsu va Anxvey hukumati mintaqaviy senzura tufayli aniqlanmagan qonunbuzarliklar sabab tergov ishlari olib borilishini talab qilgan. Davriy senzura[14] bu vositalarni emas balki Alibek Yalavochning o'zini tergov ob'yektiga aylantiradi va surushtiruv ishlari olib boriladi. 1280-yil iyul oyida Alibek yangi qog'oz pullar ishlab chiqarish va Kiangsu hamda Anxvey viloyatlarida avvalgi Song sulolasi davriga mansub pul birliklarini rasmiy farmon kutmasdan muomaladan chiqarganlikda ayblanadi [3]. Bundan tashqari, Alibek va uning

yordamchisi al-Temur uch yil oldin soliq yig'ib amaldorlarni o'zgartirib, mahalliy mudofaa kuchlari tarkibini o'zgartirganlikda, hamda o'z vakolati asosida ushbu hududlarni boshqarganlikda ayblanadi. So'ng, bu ishni Xubilayxonning bosh vaziri Ahmad Fanakati[15] (Ahmad al-Banokatiy) o'z nazoratiga olganligi aytiladi. Ya'ni, Alibekni shaxsan o'zi so'roq qilgan. Alibek esa o'zining aybsizligini e'lon qilgan va o'z harakatlarini himoya qilishga urungan. Bu natija bermagan. Alibek Yalavoch bilan al-Temur 1280-yil dekabr oyining oxirida xon buyrug'i bilan qatl etilgan [3]. Hatto Alibekning qizi Safoliq sharafiga yozilgan steleda[16]ham uning aybdor ekanligi bitilgan.

Alibek Yalavochning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, uning ikki nafar o'g'li ham bo'lgan. Ikki ham Yuan sulolasining ma'muriy lavozimlarida faoliyat yuritgan. Xubilayxon hukmronligi davrida katta o'g'li Yoqubbek Yunnan viloyatida yuqori lavozimli amaldor bo'lgan. Ikkinchi o'g'li asosan lavozimi bilan tilga olinadi. Ya'ni, La-la-chi ("tarbiyachi", "saroy murabbiysi", "shahzoda ustoz") [3] bo'lgan. Fikrimizcha, unga merosiy lavozim taqdim etilganligi uchun ismi sir tutilgan bo'lishi mumkin. Xitoyliklar tarixida Alibekning avlodlaridan eng mashhuri uning qizi Safoliq (arabchada "shafa" – "toza" va turkiy tildagi egalik qo'shimchasi – liq) bo'lgan.

I.D.Racheviltz uning Turmush o'rtog'i Temur Buqa Qipchoq urug'idan bo'lgan taniqli Yuan generali Tuq-tuqning (tu-tu-ha) o'g'li bo'lganligini aytadi. U 1279-yilda vafot etgan. Safoliqning to'rt o'g'li bo'lib ular ham Yuan imperiyasining boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan. Yuan sulolasi davrida yashagan xitoylik olim, adib va davlat arbobi hamda Safoliqning tarjimai holi muallifi Ma Tsu-changning ma'lumotiga ko'ra, u ilmiy va qobilyatli ayol bo'lib, Chiangnanda dorug'achi[13] lavozimida faoliyat yuritgan [3]. 1300-yilda Temur Buqaning vafoti vaqtida Safoliq 29 yoshda bo'lganligi haqida aytilgan. Turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng u boshqa oila qurmagan va uni bardavom saqlab qolgan jasoratli ayol sifatida tarix sahifalarida qayd etilgan. Uning o'zi 1331-yilda vafot etgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ba'zan tarixning eng muhim haqiqatlari hukmdorlar haqida emas, balki ularning hokimiyatini amalga ijro etgan shaxslar tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Alibek Yalavoch shaxsi ham mo'g'ullar davrining boshqaruv tizimini, kerak bo'lsa, imperiya siyosatining amaldagi tizimini o'rganishda muhim hisoblanadi. Yalavochlar xususan, Alibekning xizmat faoliyatini o'rganish nafaqat bir amaldor, balki mo'g'ul hukmronligi sharoitida mahalliy siyosiy kuchlar va markaziy hokimiyat o'rasidagi murakkab munosabatlarni ham ochib beradi. Mo'g'ullar imperiyasi boshqaruv tizimining jumboqli masalalariga oydinlik kiritishda, nafaqat Mahmud Yalavoch balki uning oilasi tarixini tadqiq etish davr nuqtai nazaridan zarur ekanligini ko'rsatdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bekmuradov S.T. Muxtorova G.A. Mahmud Yalavoch va uning Movarounnahr tarixida tutgan o'rni. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. №12/3 (133). – 2025. – B. 15-19.
2. De Rachewiltz I. The Secret History of the Mongols (2 vols). – Brill, 2004. – 1347 p.
3. Igor de Rachewiltz. In the service of the khan. Eminent Personalities of the Early Mongol-Yian Period (1200-1300) // With the assistance of May Wang. – Wiesbaden: Harrassowitz, 1993. – 849 p.
4. Muxtorova G.A. O'rta asr arab va fors manbalarida Mahmud Yalavoch shaxsining yoritilishi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. Vol. 5, № 5., 2025. – B. 140-145.
5. Бекмуратов С.Т. Мулхакат би-с-Сурах: Махмуд Ялавач // "Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари" // Республика Х илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2018. – С. 66-69.
6. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 280 б.

7. الملحقات بالصرح. جمال القرشي. Маҳдум Восилий номидаги ма'навий мерос фонди, №2. – 1285 [1868-69]. – 53a-b. Henan (xitoycha: 河南, Hénán) – Xitoyning markaziy qismidagi eng muhim tarixiy o'lkalardan biri.
8. “Henan” so'zi “Daryoning janubi” degan ma'noni anglatadi. Mo'g'ullar davrida Henan muhim hududlardan biri bo'lgan. XIII asrda Chingizxon va uning avlodlari Shimoliy Xitoyni bosib olganidan so'ng Henan mo'g'ullar nazoratiga o'tgan. 1271-yilda Xubilayxon tomonidan tashkil etilgan Yuan sulolasi davrida Henan imperiyaning muhim ma'muriy va iqtisodiy viloyatlaridan biri bo'lgan. Viloyat orqali poytaxt (hozirgi Pekin) bilan Xitoyning markaziy hududlari bog'langan.
9. Jianghuai – Yanszi va Xuayxe daryolari oralig'idagi tarixiy-geografik hudud. Yuan va boshqa sulolalar davrida ma'muriy birlik sifatida ham uchraydi.
10. 1271-yilda Xubilayxon Janubiy Song davlatini batamom bo'ysundirish maqsadida yirik harbiy yurishlarga tayyorgarlik ko'rgan.
11. Kiangsu (hozirgi Jiangsu provinsiyasi) Sharqiy Xitoyda joylashgan bo'lib, mo'g'ullar va Janubiy Song sulolasi o'rtasidagi harbiy harakatlar kechgan asosiy hududlardan biri hisoblangan.
12. Xan-chjou (杭州, Hángzhōu) – hozirgi Hangzhou shahri bo'lib, Xitoyning Zhejiang provinsiyasida joylashgan. XIII asrda u Janubiy Song sulolasining poytaxti bo'lgan va o'sha davrda Lin'an (臨安, Lín'ān) nomi bilan mashhur bo'lgan. Shu sababli mo'g'ullarning Janubiy Song davlatiga qarshi yurishlarida Xan-chjou strategik va siyosiy jihatdan eng muhim shaharlardan biri hisoblangan.
13. Dorug'a, daruxachi, dorug'achi (mo'g'ulcha-nazoratchi, shahar boshlig'i). Mo'g'ullar davlatish mahalliy hokimlar huzuridagi ulug' qoon vakili, noibi. Dorug'achi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: aholini ro'yxatga olish; mahalliy xalqdan qo'shin to'plash; pochta aloqalarini yo'lga qo'yish; soliqlar yig'ish; to'plangan soliq-to'lovlarni ulug' qoon saroyiga yetkazish.
14. Senzura tizimi davlat manfaatlariga zid deb topilgan ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik vazifasini bajargan.
15. Ahmad al-Banokatiy (manbalarda Ahmad Banakati nomi bilan ham uchraydi). U manbalarda Yuan davlatining bosh vazir va moliya boshqaruvchisi sifatida tilga olinadi. U asli “Banokat (Fanokat)” dan bo'lib, bu hudud hozirgi Toshkent vohasi yaqinida joylashgan
16. Stele (stela) – Ustiga yozuv, farmon, epitafiya yoki tarixiy ma'lumot bitilgan tosh yodgorlik.